www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Ma‘rifatparvar allomalarimizning asarlarida ta‘lim- tarbiya masalalari

Shoberdiyeva Yulduz Ilhomjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika va san‘at fakulteti pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi ,email@shoberdiyevayulduz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma‘rifatparvar allomalarimizning asarlarida yoshlarimizning ta‘lim- tarbiya masalalariga oid fikrlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ma‘rifatparvar allomalar, ta‘lim, tarbiya, bilim.

Аннотатция: В данной статье представлена информация о мнениях нашей молодежи по вопросам обрования в трудах наших просвещенных ученых.

Ключевые слова: просвещенные ученые, образование, подготовка, знания.

Annotation: In this article, information is provided about the opinions of our youth on the issues of education in the works of enlighttened scholars.

Key words: enlightened scholars, education, training, knowledge.

Ma‘rifatparvar allomamiz Abu Nasr Farobiy asarlarida ta‘lim-tarbiya masalalariga alohida e‘tibor bergan. Farobiy birinchilardan bo‘lib ta‘lim va tarbiyaga ta‘rif bergan olimdir: Ta‘lim- so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya-esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta‘lim- tarbiya ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so‘zlar va majbur etish bilan amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Farobiy ta‘limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma‘naviy-axloqiy qoidalar, odob me‘yorlari o‘rganiladi, kasb- hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Farobiy ta‘lim tarbiyaga bag‘ishlanga asarlarida ta‘lim- tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e‘tibor berish zarurligi, ta‘lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi.

Farobiy ta‘lim- tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Qomusiy ma‘rifatparvar allomamiz Abu Rayhon Beruniy asarlarida ta‘lim-tarbiya masalariga oid qarashlari. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolotga yetishishning eng muhim omillari ilm-ma‘rifatli bo ‘lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy inson kamolotiga yetaklovchi xislatlardan yana biri oliyjanoblik deb ko‘rsatadi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlik deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta‘kidlaydi.

Beruniyning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerakligini asoslab bergan ma‘rifatparvar allomadir. Beruniyning asarlarida ta‘lim-tarbiya masalalariga oid qarashlari har bir asarida o‘z aksini topgandir. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta‘kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e‘tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Beruniy ilmiy bilishga oid, ta‘lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta‘lim nazariyasida o‘ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir.

Buyuk ma‘rifatparvar allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sino asarlaridagi ta‘lim-tarbiya masalalariga oid qarashlari. Ibn Sino ham boshqa mutaffakkir allomalar kabi o‘zining ta‘lim-

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoy- falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma‘rifatni egallashga da‘vat etadi. Chunki, ilm-fan insonlarga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadlarga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligini, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligini, inson o‘z bilimining haqiqiyligini bilish uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi.

O‘zbek adabiyotining asoschisi, she‘riyat mulkining sultoni, ma‘rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida ta‘lim- tarbiya masalalariga oid qarashlari. Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo‘luvchi manaviy-axloqiy sifatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, ta‘lim- axloqiy muammolarni yorutuvchi asarlarida esa komil insonni shaklantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, yo‘llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiy o‘zining ,, Nazmul- javohir ‘‘ asarida quyidagicha bayon etadi:

Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,

Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni,

Har kimsaki yo‘q ilm axmoq de oni,

Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmoq de oni.

Mazkur to‘rtlikning mazmunida ilmli, oqil odam o‘z maqsadiga erishish yo‘lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o‘tadi, kim ilmni o‘zigz tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi,zero, ilm insonning baxt saodatini ta‘minlashga xizmzt qiladi degan g‘oya o‘z aksini topgan.

Taniqli ma‘rifatparvar adib Abdulla Avloniyning asarlarida ta ‘lim- tarbiya masalalariga oid qarashlari. Abdulla Avloniy xalq orasida ilg‘or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma‘rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g‘ayat katta ekanligini yaxshi bilar edi. Abdulla Avloniyning ,,Turkiy guliston yoxud axloq‘‘ asari axloqiy va ta‘limiy tarbiyaviy asardir. Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma‘rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur.

Xulosa : Buyuk ma‘rifatparvar allomalarimizning asarlarida birinchi o‘rinda ta‘lim-tarbiya masalalariga alohida e‘tibor qaratganligi. Bugungi kunda yosh avlodlarimizni vatanga sadoqat, ota-onaga mehr- muruvat,insonlar orasida o‘zaro mehr-oqibat, hurmat kabi tuyg‘ularni shaklantirishda ma‘rifatparvar allomalarimizning asarlari muhim ahamiyatga egadir. Allomalarimizning asarlarida komil insonni tarbiyalash bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy pedagogika.-T.: ,, Fan va texnologiya‘‘, 2018, 528 bet. Mualliflar R.A.Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov.
2. Umumiy pedagoguka nazariyasi va amaliyoti.-T.: ,,Sano- standart‘‘ nashriyoti, 2017-yil, 416 bet. Muallif B.X. Xodjayev
3. Nuriddinov Z. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashi. T.1973 y.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

4. Abu Nasr Farobiy. „Fozil odamlar shaxri‘‘. -T.: „ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi‘‘ Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. – 160 b.